

OLIV TA'LIMDAGI IMTIYOZLARNING RIVOJLANISH TENDENSIYASI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Yusufjonov Asadbek Dadabek o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti

*Magistratura bosqichi "Davlat boshqaruvi
huquqi" yo'nalishi talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta'lim tizimidagi imtiyozlarning rivojlanish tendensiyalari, ularning huquqiy asoslari va o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Xalqaro tajriba hamda milliy qonunchilik asosida imtiyozlarning samaradorligi va istiqbollari yoritiladi. Imtiyozlarning ijtimoiy adolat va ta'lim sifati uchun tutgan o'zni ilmiy asoslangan holda ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, imtiyoz, huquqiy asos, ijtimoiy adolat, rivojlanish tendensiyasi, xalqaro tajriba.

I.Kirish

Oliy ta'lim har bir davlat taraqqiyoti uchun strategik ahamiyatga ega bo'lgan eng muhim sohalardan biridir. U nafaqat inson kapitalini shakllantirish, balki jamiyatning iqtisodiy, madaniy va siyosiy rivojlanishida hal qiluvchi o'rin tutadi. Zamonaviy davlatlarda ta'lim sifati va uning jamoat hayotidagi o'zni milliy xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash omillaridan biri sifatida qaralmoqda. Shu bois, O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Ta'lim sifati oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona to'g'ri yo'lidir va biz e'tiborni Yangi O'zbekiston uchun eng katta investitsiya bo'lgan ta'limni qo'llab-quvvatlashga qaratamiz. Najot – ta'limda, najot – tarbiyada, najot – bilimda. Chunki barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi"¹.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahririda oliy ta'limga oid huquqiy kafolatlar yanada kuchaytirildi. Xususan, 51-moddada har bir fuqaroning davlat ta'lim tashkilotlarida tanlov asosida va davlat hisobidan oliy ta'lim olish huquqi aniq mustahkamlangan². Bu norma ta'lim tizimida inson salohiyatini rivojlantirish, fuqarolarning intellektual darajasini oshirish va jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlash yo'lida asosiy huquqiy kafolat bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, ushbu modda oliy ta'lim muassasalarining akademik erkinlik, o'zini o'zi boshqarish va ilmiy-tadqiqot

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 22.12.2022 yildagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.// Elektron manba. <https://review.uz/uz/post/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-2023-yil-uchun-murojaatnomasi>

² O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi,URL: <https://lex.uz/docs/-6445145>

faoliyatini mustaqil olib borish huquqlarini ham ta'minlaydi, bu esa xalqaro miqyosdagi standartlarga to'liq mos keladi.

Oliy ta'lim tizimida **imtiyozlar** muhim ijtimoiy mexanizm sifatida shakllanib kelmoqda. Ular jamiyatda mavjud ijtimoiy tafovutlarni yumshatish, zaif qatlamlarni qo'llab-quvvatlash va inson salohiyatini ochish uchun xizmat qiladi. Imtiyozlar nogironligi bo'lgan shaxslar, yetimlar, harbiy xizmatchilar va boshqa ehtiyojmand guruhlarining oliy ta'limga kirishini rag'batlantirish orqali jamiyatdagi ijtimoiy tenglik va barqarorlikka zamin yaratadi³.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi **Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Oliy Majlisga bo'lgan murojaatnomasida ham** oliy ta'lim tizimi va undagi imtiyozlarni kengaytirish, yoshlarni qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining doimiy vazifasi sifatida ko'rsatib o'tilgan⁴. Imtiyozlar tizimining rivojlanishi fuqarolarning ta'lim olish imkoniyatlarini oshirish, ijtimoiy adolatni ta'minlash va davlatning ijtimoiy siyosatini yanada kuchaytirish imkonini beradi. Shu jihatdan, imtiyozlar nafaqat iqtisodiy vosita, balki inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashda muhim huquqiy mexanizm sifatida qaraladi.

Shu asosda mazkur maqola oliy ta'limdagi imtiyozlarning rivojlanish tendensiyalari va ularning o'ziga xos xususiyatlarini huquqiy hamda ilmiy-nazariy jihatdan chuqur tahlil qilishga qaratilgan.

II. METODOLOGIYA

Ushbu maqolani tahlil qilish jarayonida oliy ta'lim tizimidagi imtiyozlarning rivojlanish tendensiyasi va ularning huquqiy asoslarini o'rganish uchun zamonaviy tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotda **huquqiy-tahliliy metod, qiyosiy-huquqiy tahlil, statistik va nazariy-analitik metodlar** uyg'unlashtirildi va ularning har biri aniq ilmiy natijalarga xizmat qildi.

Birinchi navbatda, **O'zbekiston Respublikasining** Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari asosida oliy ta'limdagi imtiyozlar tizimi **huquqiy tahlil** qilindi. **O'zbekiston Respublikasining** Konstitutsiyaning 51-moddasida oliy ta'lim olish huquqi davlat tomonidan kafolatlangan bo'lsa, 79-moddada esa yoshlarning ta'lim olish huquqlari va ularga yaratiladigan imkoniyatlar belgilab berilgan. Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 468-son qarori asosida imtiyozli kvotalar va boshqa huquqiy mexanizmlar amaliyotda qanday ishlashi chuqur o'rganildi⁵.

³ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 07.06.2019 yildagi 468-son. URL: <https://lex.uz/docs/-4368106>

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 2023-yil. URL: <https://president.uz/oz/lists/view/5774>

⁵ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 468-son qarori, 07.06.2019 y. URL: <https://lex.uz/docs/-4368106>

Ikkinchidan, **qiyosiy-huquqiy tahlil metodi** yordamida Germaniya, AQSh va Singapur kabi rivojlangan davlatlarda qo'llanilayotgan oliy ta'lim imtiyozlari O'zbekiston tajribasi bilan solishtirildi. Germaniyaning "Bafög" dasturi, AQShning "Pell Grant" tizimi va Singapurning "Financial Assistance Scheme" dasturlari asosida imtiyozlarning monitoring va samaradorlik tizimlari o'rganildi⁶. Bu yondashuv O'zbekistondagi imtiyozlar tizimiga xalqaro amaliyotni moslashtirish imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qildi.

Uchinchidan, **statistik tahlil metodidan** foydalangan holda O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2017–2024 yillardagi rasmiy hisobotlari asosida imtiyozli talabalar sonining o'sish dinamikasi chuqur tahlil qilindi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilda imtiyozli talabalar soni 10 000 nafardan oshib, 2017-yilga nisbatan qariyb 40% ga ko'payganligi aniqlandi.

Shuningdek, **nazariy-analitik metod** orqali xalqaro tashkilotlar hujjatlari va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari o'rganildi. A.V.Malko, S.Y.Sumenkov, F.Regelsberger lar tomonidan imtiyozlarni tushunish borasidagi muammolar tahlil qilingan. A.S.Emelyanov, A.I.Tiganovlar tomonidan huquqdagi imtiyozlar masalasi o'rganilgan. X.T.Odilqoriyev, Sh.A.Saydullayevlar tomonidan huquqiy imtiyozlar tushunchasiga ta'rif berib o'tilgan. M.Xudoyberdiyevning ilmiy tadqiqotlari oliy ta'limdagi imtiyozlarning huquqiy asoslari va amaliy ahamiyatini yoritishda asosiy nazariy manbalar bo'ldi⁷. P. Burdyo tomonidan ilgari surilgan "ijtimoiy lift" nazariyasi asosida imtiyozlarning jamiyatdagi ijtimoiy qatlamlar o'rtasidagi tenglikni ta'minlashdagi o'rni tahlil qilindi⁸.

Mazkur metodologiya huquqiy, nazariy va statistik asoslarni qamrab olib, oliy ta'limdagi imtiyozlar tizimini kompleks ilmiy tahlil qilish imkonini beradi.

III. NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimida imtiyozlar instituti davlat siyosatining ajralmas qismi sifatida shakllanib bormoqda. Bu institutning huquqiy asoslari chuqur poydevorga ega bo'lib, Konstitutsiya va sohaviy qonunlarda belgilangan kafolatlar orqali mustahkamlangan. Bu kafolatlar ijtimoiy tenglik va adolat prinsiplarini ta'minlashga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, **"Ta'lim to'g'risida"gi Qonun** imtiyozlar tizimini aniq belgilab, ehtiyojmand qatlam vakillarining oliy ta'limga kirish imkoniyatlarini kengaytirishni nazarda tutadi. **Vazirlar Mahkamasining 468-son qarori** orqali esa imtiyozli kvotalar va qabul jarayonining batafsil tartibi ko'rsatib berilgan bo'lib, u amaliyotda muhim huquqiy vosita sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birga, **"Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonun** nogironligi bo'lgan

⁶ Pell Grant Program. U.S. Department of Education. URL: <https://www2.ed.gov/programs/fpg/index.html>

⁷ Xudoyberdiyev M. "Ta'lim tizimida imtiyozlar: huquqiy va amaliy jihatlar" // Yuridik fanlar axborotnomasi, 2020.

⁸ Bourdieu P. The Forms of Capital. In: Richardson J. (Ed.) Handbook of Theory and Research for the Sociology of Education. Greenwood, 1986.

shaxslarning oliy ta'limga kirishdagi teng imkoniyatlarini kafolatlaydi va inklyuziv ta'lim muhitini yaratishga xizmat qiladi⁹.

Tahlil shuni ko'rsatmoqdaki, oliy ta'limdagi imtiyozlar tizimi keng qamrovli bo'lsa-da, hali ham ayrim **muammoli jihatlar mavjud**. Jumladan, monitoring va baholash tizimi yetarlicha takomillashmagan. Statistika ma'lumotlariga ko'ra, 2017–2024-yillar davomida imtiyozli talabalar soni qariyb ikki baravar oshgan bo'lsa-da, ushbu imtiyozlarning **ta'lim sifatiga va natijadorlikka ta'siri bo'yicha** muntazam va chuqur monitoring tizimi ishlab chiqilmagan.

Xorijiy mamlakatlar tajribasi

- **AQShda “Pell Grant” dasturi** kam ta'minlangan talabalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bo'lib, har yili grantlarning samaradorligi bo'yicha jamoatchilikka ochiq hisobotlar taqdim etiladi. Bu tizim shaffoflik va samaradorlik tamoyillarini amalga oshirishda o'zining muvaffaqiyatli model sifatida tan olingan¹⁰.
- **Germaniyada “Bafög” dasturi** kredit va grant shaklidagi yordamlarni talabalar uchun muntazam ravishda taqdim etadi va ularning natijadorligi Bundestag sessiyalarida ko'rib chiqiladi¹¹.
- **Singapurda esa “Financial Assistance Scheme”** orqali imtiyozlar ajratilib, ular bo'yicha yillik ochiq hisobotlar parlament nazorati ostida baholanadi¹².

Bu davlatlarda imtiyozlar tizimi faqat ta'lim olish imkoniyatini berish bilan cheklanmay, balki uning samaradorligi va sifatini doimiy monitoring qilish, baholash va natijadorlikni ta'minlash orqali rivojlanib bormoqda. Ayniqsa, Germaniyada oliy ta'limdagi moliyaviy yordamlarning samaradorligi yillik hisobotlarda aniq raqamlar va indikatorlar orqali baholanadi, bu esa tizimdagi ochiqlik va ishonchlilikni mustahkamlaydi.

O'zbekistonda bu borada huquqiy asoslar yetarli darajada shakllangan bo'lsa-da, **xalqaro amaliyotdagi kabi tizimli baholash va natijadorlik monitoringi** hali to'liq yo'lga qo'yilmagan. Imtiyozlar faqat kvotalar bilan emas, balki sifat ko'rsatkichlari bilan ham baholanishi kerak. Raqamlashtirish va shaffoflikni kuchaytirish orqali oliy ta'lim tizimidagi ijtimoiy tenglik va adolat mexanizmlarini yanada takomillashtirish lozim. Oliy ta'limdagi imtiyozlar tizimi davlat siyosatining muhim elementi bo'lib, u faqatgina huquqiy kafolat emas, balki davlatning ijtimoiy siyosatidagi strategik vosita sifatida qaralishi zarur. Xalqaro tajribalar asosida O'zbekistonda imtiyozlar tizimini raqamlashtirish, samaradorlik monitoringini

⁹ O'zbekiston Respublikasi “Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida”gi Qonun.

URL: <https://lex.uz/acts/-5049511>

¹⁰ Pell Grant Program. U.S. Department of Education. URL: <https://www2.ed.gov/programs/fpg/index.html>

¹¹ BAföG – Bundesausbildungsförderungsgesetz (Germany). URL: <https://www.bmbf.de>

¹² Education Act 1957, Singapore. URL: <https://sso.agc.gov.sg/Act/EA1957>

kuchaytirish va muntazam hisobot berish tizimini joriy qilish eng dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

IV. MUHOKAMA

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimidagi imtiyozlar instituti davlatning ijtimoiy siyosatida muhim vosita sifatida shakllangan va ijtimoiy tenglik, adolat hamda inklyuzivlik tamoyillarining hayotga tatbiq etilishida asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qilmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim tizimida imtiyozlarning huquqiy asoslari yetarlicha ishlab chiqilgan bo'lsa-da, ularning samarali va natijador amaliyotga tatbiq etilishi uchun tizimli yondashuv zarur.

Birinchidan, **monitoring va baholash tizimi zaifligi** kuzatilmoqda. Imtiyozlar aynan qaysi ehtiyojga yo'naltirilgani va ularning ta'lim sifatiga ta'siri hali chuqur tahlil qilinmayapti. Xalqaro tajribada, xususan Germaniya va AQShda, imtiyozlar samaradorligi muntazam ravishda monitoring qilinib, natijalari ochiq e'lon qilinadi. O'zbekistonda esa mavjud monitoring tizimining raqamlashtirilmaganligi va baholash indikatorlarining noaniqligi imtiyozlar tizimining samaradorligini baholash imkoniyatini cheklamoqda.

Ikkinchidan, **imtiyozlarning haddan tashqari ko'pligi va qamrovining kengayib borishi** ularning sifatli ijrosiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu borada Singapur tajribasida ko'rilgandek, imtiyozlar faqat ehtiyojmand guruhlar uchun aniq ko'rsatkichlar asosida taqdim etiladi va ta'lim natijalariga real ta'sir ko'rsatishga yo'naltiriladi. O'zbekistonda esa imtiyozlar ba'zan ijtimoiy siyosat vositasi sifatida haddan tashqari keng ko'lamda qo'llanilishi sababli maqsadga muvofiqlik masalasi yuzaga kelmoqda.

Uchinchidan, yana bir muhim jihat — **jamoatchilik xabardorligi va huquqiy ongning yetishmasligi**. Ko'plab talabalar va ularning ota-onalari mavjud imtiyozlar va ularni qo'llash tartibi haqida to'liq ma'lumotga ega emas, bu esa amaliyotda foydalanish samaradorligini pasaytiradi.

Tavsiyalar

- **Imtiyozlarni baholash va qayta ko'rib chiqish:** haddan tashqari ko'p imtiyozlar ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi uchun ularning maqsadga muvofiqligi qayta ko'rib chiqilishi lozim. Faqat ijtimoiy jihatdan asoslangan va real ehtiyojlarga mos imtiyozlarni saqlab qolish tavsiya etiladi.
- **Huquqiy bazani yangilash:** imtiyozlarni qo'llash tartibini yanada aniqlashtirish va shaffoflikni ta'minlash uchun "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga zarur o'zgartirishlar kiritish.
- **Xalqaro tajribani joriy etish:** Germaniya va AQSh tajribasidagi samaradorlik monitoringi, grant tizimlari va natija asosidagi baholash tizimini bosqichma-bosqich tatbiq etish.

Shuningdek, **imtiyozlarni qisqartirish bo'yicha amaliy taklif** mavjud imtiyozlarni qat'iy segmentlarga ajratish (masalan, faqat ehtiyojmand qatlamlar va ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlar uchun) va boshqa holatlarda umumiy tartibni joriy qilish orqali tizimni optimallashtirish kerak. Bu bir tomondan ta'lim tizimining yukini kamaytirsa, ikkinchi tomondan adolat va samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

XULOSA

O'zbekiston oliy ta'lim tizimidagi imtiyozlar instituti hozirgi kunda ijtimoiy tenglik va adolat tamoyillarini ta'minlashda muhim rol o'ynamoqda. Mamlakatda ushbu tizim huquqiy jihatdan yetarlicha asoslangan bo'lsa-da, tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, imtiyozlarning samaradorligi va ularning amaliy natijalarini baholash mexanizmlari hali to'liq yo'lga qo'yilmagan. Xalqaro tajriba, ayniqsa Germaniya va AQShdagi namunalar, imtiyozlar tizimining muvaffaqiyati natijalarni muntazam baholash va ochiq hisobotlar tayyorlash orqali ta'minlanishini ko'rsatmoqda. O'zbekiston uchun ham monitoring tizimini kuchaytirish va raqamlashtirish yo'nalishida ishlarni jadallashtirish dolzarb vazifa sifatida qolmoqda. Kelgusida imtiyozlarni chinakam ehtiyojmand guruhlar manfaatiga yo'naltirish, sifat nazoratini kuchaytirish va huquqiy hujjatlarni xalqaro standartlarga moslashtirish orqali tizimni yanada samarali qilish mumkin. Bu esa oliy ta'limda adolat va tenglikni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 2023-yil 30-aprel. // URL: <https://lex.uz/docs/-6445145>
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637-son. // URL: <https://lex.uz/docs/5013007>
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 468-son qarori "Oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risida". 2019-yil 7-iyun. // URL: <https://lex.uz/docs/4383181>
4. O'zbekiston Respublikasining "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonuni. 2021-yil 15-iyun, O'RQ-703-son. // URL: <https://lex.uz/docs/5462375>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlar daftari" va "Ayollar daftari"ni yuritish tartibi to'g'risida"gi qarori. // URL: <https://lex.uz>
6. Federal Ministry of Education and Research, Germany. BAföG (Federal Training Assistance Act). // URL: <https://www.bafög.de>
7. U.S. Department of Education. Federal Pell Grants Program Overview. // URL: <https://www2.ed.gov/programs/fpg/index.html>
8. Singapore Ministry of Education. Financial Assistance Scheme. // URL: <https://www.moe.gov.sg/financial-matters/financial-assistance>